

**OMMAVIY OFERTA**  
**«NBU Visa kartasi bilan chempion bo'ling»**  
**aksiyasida ishtirok etish qoidalari**

Toshkent sh.

«\_\_» \_\_\_\_\_ 2026 r.

**1. Atamalar va izohlar**

**Aksiya** – Tashkilotchining “NBU Visa kartalari bilan chempion bo'ling” rag'batlantiruvchi aksiyasi bo'lib, u Aksiya davri davomida amal qiladi.

**"O'zmilliybank" AJ (keyingi o'rinlarda – Tashkilotchi) Visa kartasi** – Tashkilotchi tomonidan emissiya qilingan plastik va/yoki virtual Visa Classic, Visa Gold, Visa Platinum, Visa Infinite bank kartalari hamda virtual kartalar.

**Tashkilotchi** – "O'zmilliybank" AJ, bu haqda batafsil ma'lumot Qoidalarning yakuniy bo'limida (Tashkilotchi to'g'risida ma'lumot) keltirilgan.

**Aksiya Davri** – mazkur qoidalarning 3.1-bandida ko'rsatilgan davr.

**G'olib** – Aksiya doirasida o'tkaziladigan yutuqli o'yin natijalariga ko'ra Bosh va/yoki qimmatbaho sovrinlarni olish huquqini qo'lga kiritgan Ishtirokchi.

**Qoidalar** – mazkur Aksiyada ishtirok etish qoidalari.

**Bosh sovrin** – mazkur qoidalarning 5.2.4-bandida nazarda tutilgan, g'olibga taqdim etiladigan sovrin.

**Qimmatbaho sovrinlar** – qoidalarning 5.2.1, 5.2.2 va 5.2.3-bandlarida nazarda tutilgan, g'olibga taqdim etiladigan sovrinlar.

**Yutuqli o'yin** – ishtirokchilar o'rtasida bosh va qimmatbaho sovrinlarni qoidalarga muvofiq o'tish jarayoni.

**Ishtirokchi** – muomala layoqatiga ega, 18 yoshga to'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi va qoidalarning 4.1-bandi (Bosh sovrin o'yini uchun) hamda 4.2-bandi (Qimmatbaho sovrinlar o'yini uchun) shartlarini bajargan jismoniy shaxs.

**Mobil telefon raqami** – Karta rasmiylashtirilayotganda ko'rsatilgan yoki tashkilotchining Milliy mobil ilovasida ro'yhatdan o'tgan telefon raqami.

**Tashkilotchining Telegram-kanali** – tashkilotchining Telegram messenjeridagi rasmiy kanali, manzil: [https://t.me/nbu\\_official](https://t.me/nbu_official)

**Tashkilotchining Instagram-sahifasi** – tashkilotchining Instagram ijtimoiy tarmog'idagi rasmiy sahifasi, manzil: <https://www.instagram.com/nbu.official/>

**Tovarlar uchun to'lov** – tashkilotchining Visa bank kartasi orqali tovarlar/ishlar/xizmatlar uchun to'lovni amalga oshirish operatsiyasi. Aksiya doirasida qoidalarga 1-ilovada keltirilgan operatsiyalar tovarlar uchun to'lovi hisoblanmaydi.

**2. Aksiya maqsadi**

- 2.1. Aksiya rag'batlantiruvchi tadbir bo'lib, uning maqsadi iste'mol talabini rag'batlantirish, e'tiborni jalb qilish, brend haqida bilishi va sodiqligini oshirish, shuningdek, tashkilotchining tovar belgilari, bank mahsulotlari va xizmatlariga bo'lgan qiziqishni saqlab qolish va oshirish orqali ularni bozorda yanada ommalashtirishdan iborat.
- 2.2. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 387-moddasiga muvofiq, sovrinni yutib olgan ishtirokchi

nomidan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini to'lash majburiyatini Tashkilotchi soliq agenti sifatida o'z zimmasiga oladi, bundan oltin quymasi ko'rinishidagi qimmatbaho sovrinni yutib olgan ishtirokchilar mustasno bo'lib, ular jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini mustaqil ravishda to'laydilar. Oltin quymani yutib olgan ishtirokchi sovrinni olishdan oldin jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summasini Bankning 13.5-bandda ko'rsatilgan hisob raqamiga kiritishi shart, bank esa soliq agenti sifatida aksiya g'olibi olgan/yutgan sovrin qiymatidan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini byudjetga o'tkazadi va bu haqida soliq organiga tegishli ma'lumotni yuboradi.

- 2.3. Aksiya O'zbekiston Respublikasining 07.06.2022 yildagi O'RQ-776-sonli "Reklama to'g'risida"gi Qonuni mazmuniga ko'ra lotereya, qimor yoki tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yin hisoblanmaydi. Aksiya o'tkazish tartibi to'lov kiritish bilan bog'liq emas, tasodifga (voqeaga) va (yoki) Ishtirokchining qobiliyatlari hamda boshqa sifatlariga bog'liq emas. Ishtirokchilar Aksiya ishtiroki bilan bog'liq mulkiy xatarlarni o'z zimmalariga olmaydilar.

### **3. Aksiya o'tkazish muddatlari, hududi va o'yin bosqichlari**

- 3.1. Aksiya davri:

- Aksiya boshlanish sanasi va vaqti: 01.02.2026, Toshkent vaqti bilan 00:01;
- Aksiya tugash sanasi va vaqti: 22.03.2026, Toshkent vaqti bilan 23:59.

Aksiya 2 bosqichda o'tkaziladi. Sovrin jamg'armasi tarkibi 5.2.1, 5.2.2, 5.2.3, 5.2.4-bandlarga muvofiq belgilanadi.

1-bosqich 01.02.2026-28.02.2026. 1, 2 va 3-darajali qimmatbaho sovrinlar o'yini 1-bosqich yakunlari bo'yicha – 16.03.2026.

2-bosqich 01.03.2026-22.03.2026. 1, 2 va 3-darajali qimmatbaho sovrinlar va bosh sovrin o'yini, yakunlarni sarhisob qilish – 04.04.2026.

- 3.2. Tashkilotchi Aksiya Davrini va o'yinlarni o'tkazish muddatlarini o'zgartirish yoki qisqartirish huquqiga ega. Aksiya davri o'zgargan taqdirda, tashkilotchi tegishli ma'lumotni quyidagi axborot resurslarida (keyingi o'rinlarda – Aloqa kanallari) joylashtirish orqali Ishtirokchilarni xabardor qiladi:

- Tashkilotchining rasmiy veb-saytida va/yoki ijtimoiy tarmoqlardagi (Telegram, Instagram) rasmiy sahifalarida;
- Tashkilotchining mobil ilovasida.

- 3.3. Aksiya o'tkazilish hududi: O'zbekiston Respublikasi.

### **4. Ishtirok etish shartlari**

- 4.1. Bosh sovrin o'yini ishtirokchilari quyidagi barcha talablarga javob beradigan muomala layoqatiga ega jismoniy shaxslar hisoblanadi:

- Tashkilotchining plastik va/yoki virtual Visa bank kartasi egalari bo'lishi;
- NBU Visa bank kartasi faolligini Aksiya Davri boshidan to oxirigacha yoki bosh sovrinni olguniga qadar saqlab turishi – NBU Visa bank kartasi ko'rsatilgan vaqt oralig'ida har qanday holatda bloklanmagan va/yoki yopilmagan bo'lishi kerak.

- 4.2. Qimmatbaho sovrinlar o'yini ishtirokchilari quyidagi barcha talablarga javob beradigan muomala layoqatiga ega jismoniy shaxslar hisoblanadi:

- Tashkilotchining plastik va/yoki virtual NBU Visa bank kartasi egalari bo'lishi;
- Tashkilotchining NBU Visa bank kartasi faolligini Aksiya Davri boshidan to oxirigacha yoki Qimmatbaho sovrinni olguniga qadar saqlab turishi – Tashkilotchining Visa bank kartasi ko'rsatilgan

vaqt oralig'ida har qanday holatda bloklanmagan va/yoki yopilmagan bo'lishi kerak;

- 1-darajali Qimmatbaho sovrinlar o'yinida qatnashish uchun O'yin ishtirokchisi quyidagi shartlarni bajarishi kerak: marketing aksiyasining bir bosqichi davomida har biri kamida 100 000 so'm (yoki valyuta o'zbek so'midan farq qilgan taqdirda, operatsiya hisobdan chiqarilgan sanadagi Markaziy bank kursi bo'yicha ekvivalent summa) bo'lgan 10 ta xarid to'lovi operatsiyasini amalga oshirish.

- 2-darajali Qimmatbaho sovrinlar o'yinida qatnashish uchun O'yin ishtirokchisi quyidagi shartlarni bajarishi kerak: marketing aksiyasining bir bosqichi davomida har biri kamida 200 000 so'm (yoki valyuta o'zbek so'midan farq qilgan taqdirda, operatsiya hisobdan chiqarilgan sanadagi Markaziy bank kursi bo'yicha ekvivalent summa) bo'lgan 10 ta operatsiyani amalga oshirish.

- 3-darajali Qimmatbaho sovrinlar o'yinida qatnashish uchun O'yin ishtirokchisi quyidagi shartlarni bajarishi kerak: marketing aksiyasining bir bosqichi davomida har biri kamida 200 000 so'm (yoki valyuta o'zbek so'midan farq qilgan taqdirda, operatsiya hisobdan chiqarilgan sanadagi Markaziy bank kursi bo'yicha ekvivalent summa) bo'lgan 20 ta operatsiyani amalga oshirish.

- Bosh sovrin o'yinida qatnashish uchun O'yin ishtirokchisi 1-darajali sovrinlar o'yini shartlarini bajarishi kerak.

4.3. Aksiyada ishtirok etish orqali ishtirokchi qoidalar bilan to'liq tanishganligini va rozi ekanligini tasdiqlaydi hamda quyidagilarga rozilik beradi:

- Qoidalarda nazarda tutilgan Aksiyada ishtirok etish shartlari va tartibiga;
- Aksiya davomida Ishtirokchi tomonidan uchinchi shaxslarning huquqlari buzilishi munosabati bilan uchinchi shaxslar tomonidan tashkilotchiga har qanday da'volar kelib chiqqan taqdirda, ishtirokchi bunday nizolarni mustaqil hal qilish va tashkilotchini uchinchi shaxslarning shikoyat va da'volaridan ozod qilish mas'uliyatini o'z zimmasiga oladi;
- Ishtirokchi g'olib deb e'lon qilingan taqdirda, tashkilotchi va/yoki uning vakolatli vakili tomonidan Ishtirokchining familiyasi, ismi, otasining ismi, rasmi va boshqa ma'lumotlaridan reklama maqsadlarida foydalanishiga, jumladan, har qanday reklama materiallari uchun ishtirokchini intervyular uchun tasvirga va sur'atga olishga – muddat va hudud bo'yicha cheklovlarisiz va qo'shimcha haq to'lamasdan;
- Ishtirokchining qoidalarni bajarmasligi, rad etishi va/yoki qoidalarga, shu jumladan qoidalarning 4.3.3-bandiga rozi bo'lmasligi, tashkilotchi uchun bunday ishtirokchiga Sovrin berishni rad etish va uni aksiyadagi ishtirokdan chetlashtirish (diskvalifikatsiya qilish) uchun asos bo'ladi.

4.4. Tashkilotchining xodimlari Aksiyada Ishtirokchi sifatida qatnashish huquqiga ega emas. Aksiyada ishtirok etayotgan shaxs o'ziga nisbatan ushbu cheklov qo'llanilishini aniqlasa, bu haqda zudlik bilan bankni xabardor qilishi va/yoki aksiyada ishtirokchi sifatidagi ishtirokini to'xtatishi shart. Shaxs tomonidan ushbu cheklovga zid ravishda o'z ishtirokini davom ettirishi va bu faktni yashirishi qoidalarning buzilishi hisoblanadi va ushbu shaxsning Aksiyadan keyingi chetlashtirilishiga olib keladi. Ushbu cheklovni buzgan ishtirokchi avtomatik ravishda aksiyadan chiqariladi. Ushbu cheklov buzilganligi aniqlangan taqdirda, Tashkilotchi bunday shaxsga sovrinni topshirishdan bosh tortish huquqiga ega, agar sovrin allaqachon topshirilgan bo'lsa, Tashkilotchi bunday shaxsdan sovrinni qaytarishni talab qilish huquqiga ega.

## **5. Sovrinlar jamg'armasi**

5.1. Sovrinlar jamg'armasi, shuningdek Aksiya tashkillashtirish xarajatlari Aksiya Tashkilotchisi mablag'lari hisobidan shakllantiriladi.

5.2. Aksiya sovrin jamg'armasi quyidagi sovrinlarni o'z ichiga oladi:

*Onlayn o'yin:*

<b>№</b>	<b>Nomi</b>	<b>Soni</b>	<b>Izoh</b>
<b>5.2.1 1-darajali Qimmatbaho sovrinlar (1 va 2-bosqich uchun)</b>			
	Fan-to'plami	20 dona (1-bosqich uchun 10 ta va 2-bosqich uchun 10 ta)	Suvenir mahsulotlari
<b>5.2.2 2-darajali Qimmatbaho sovrinlar (1 va 2-bosqich uchun)</b>			
	10 grammlik Oltin quyma	5 dona (1-bosqich uchun 3 ta quyma va 2-bosqich uchun 2 ta quyma)	

<b>5.2.3 3-darajali Qimmatbaho sovrinlar (1 va 2-bosqich uchun)</b>			
	20 grammlik Oltin quyma	3 dona (1-bosqich uchun 2 ta oltin quyma va 2-bosqich uchun 1 ta oltin quyma)	

<b>5.2.4</b>	<b>Bosh sovrin (1 ta sayohat 2 kishi uchun)</b>	Ikki kishi uchun sayohat quyidagilarni o'z ichiga oladi: <ul style="list-style-type: none"> <li>- 4 yulduzli mehmonxonada 4 kecha tunash (joylashish);</li> <li>- Futbol bo'yicha 2026-yil Jahon chempionati o'yiniga 2 ta chipta (1-toifa);</li> <li>- \$600 nominaliga ega oldindan to'langan Visa kartasi;</li> <li>- Aeroportdan/aeroportga transfer (avtobus orqali);</li> <li>- Mehmonxonada kunlik nonushta va yengil tamaddilar;</li> <li>- Rejalashtirilgan tadbirlarga borish/kelish transporti (avtobus orqali);</li> <li>- Sovg'alar / qutlov suvenirlari;</li> <li>- Ko'ngilochar/madaniy tadbir;</li> <li>- Tadbirlarda Visa xodimlari hamrohligi;</li> <li>- Tibbiy va xavfsizlik ta'minoti.</li> </ul>
--------------	---	--

5.3. Tashkilotchi bir tomonlama tartibda, Ishtirokchini ogohlantirmasdan, sovrin jamg'armasini, jumladan, miqdori, ko'rinishi va/yoki texnik xususiyatlarini o'zgartirish huquqiga ega, bunda xususiyatlar Qoidalarda e'lon qilingan sovrinlardan jiddiy farq qilmasligi kerak.

5.4. Aksiya reklama materiallarida ko'rsatilgan Sovrinlarning vizual tasvirlari tanishtiruv xarakteriga ega bo'lib, Sovrinlarning haqiqiy tashqi ko'rinishi, xususiyatlari mos kelmasligi mumkin.

## **6. G'olibni aniqlash tartibi**

6.1. Aksiya doirasida Bosh va Qimmatbaho sovrinlar o'yini Qoidalarning 3.1-bandida ko'rsatilgan muddatlar va bosqichlarga muvofiq Tashkilotchining Telegram-kanali va/yoki Instagram-sahifasida

jonli efir orqali o'tkaziladi.

- 6.2. Har bir o'yinning aniq vaqti va jonli efir havolalarini Tashkilotchi tegishli O'yin boshlanishidan kamida 24 soat oldin rasmiy saytida va ijtimoiy tarmoqlarida e'lon qiladi.
- 6.3. Har bir o'yinda faqat qoidalarining barcha shartlariga javob beradigan Ishtirokchilar qatnashishi mumkin.
- 6.4. Bosh sovrin o'yinida Aksiya Davrida Qoidalarining 4.2-bandidagi shartlarni bajargan Ishtirokchilar qatnashishi mumkin. Tegishli Qimmatbaho sovrinlar o'yinida faqat tegishli O'yin Bosqichida Qoidalarining 4.2-bandi shartlarini bajargan Ishtirokchilar qatnashishi mumkin.
- 6.5. Aksiya Ishtirokchisi butun Aksiya davri davomida bittadan ortiq Bosh sovrin va bitta O'yinda bittadan ortiq Qimmatbaho sovrinni olishga haqli emas. Agar Ishtirokchi Bosh sovrin G'olibi deb e'lon qilinsa, ushbu Ishtirokchi keyingi O'yinlarda ishtirok etishdan chiqariladi.
- 6.6. G'oliblar aksiya ishtirokchilarining barcha ishtirok etuvchi tranzaksiyalari orasidan tasodifiy tanlash yo'li bilan aniqlanadi. O'yin davomida Tashkilotchi har qanday tasodifiy tanlash usullarini, shu jumladan tasodifiy raqamlar generatorlarini (randomizer) qo'llashga haqli. Bunda o'yin mezonlariga javob beradigan har bir tranzaksiyaga noyob raqam beriladi.
- 6.7. Har bir o'yin doirasida 2 nafargacha zaxira G'oliblari aniqlanadi.
- 6.8. O'yin natijalari bo'yicha zaxira va asosiy G'oliblarning dastlabki ro'yxati jonli efiirda Familiya va ism sharflarini hamda telefon raqamining oxirgi 4 raqamini e'lon qilish orqali ochiq qilinadi. G'oliblarning yakuniy ro'yxati Tashkilotchining Telegram-kanali va Instagram-sahifasida e'lon qilinadi.
- 6.9. Zaxira G'olibi, agar Tashkilotchi asosiy yoki boshqa zaxira G'olibiga Qoidalarda ko'rsatilgan har qanday sabablarga ko'ra sovrinni bermaganligi sababli u bilan bog'langan bo'lsa, ustuvorlik tartibida sovringa da'vogarlik qilishga haqli.
- 6.10. G'olibning e'lon qilinishi sovrinni olishning so'zsiz kafolati hisoblanmaydi. Tashkilotchi quyidagi hollarda G'olibga sovrinni bermaslik huquqiga ega:
  - Tashkilotchi SMS, PUSH-xabar yuborgan va/yoki G'olibga qo'ng'iroq qilgan paytdan boshlab 5 ish kuni ichida G'olib bilan bog'lana olmasa;
  - G'olib Sovrinni olishdan va/yoki Sovrinni olish uchun zarur harakatlarni amalga oshirishdan bosh tortsa;
  - Tashkilotchi Qoidalarda belgilangan asoslarga ko'ra G'olibga Sovrin berishni rad etsa;
  - Qoidalarda nazarda tutilgan boshqa hollarda. Agar Tashkilotchi G'olibga sovrinni bermasa, Tashkilotchi bunday sovrinni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo'lmagan har qanday usulda tasarruf etishga haqli.
- 6.11. O'yin natijalarining shaffofligini ta'minlash va qayd etish uchun o'yin o'tkazilayotgan vaqtda maxsus komissiya tuziladi, uning tarkibiga Aksiya Tashkilotchisining vakolatli vakillari kiradi.
- 6.12. Komissiya a'zolari o'yin natijalarini g'oliblarni aniqlash faktini tasdiqlovchi tegishli o'yin o'tkazish dalolatnomasida qayd etadilar. Komissiya a'zolarining familiya, ism va lavozimi Qoidalarda ko'rsatilmaydi, lekin Tashkilotchining ichki hujjatlarida qayd etiladi.
- 6.13. Bosh sovrinni topshirish 3.1, 3.2-bandlar va 6-bo'limga muvofiq, sanasi va vaqti alohida xabar qilinadigan tadbir doirasida amalga oshiriladi.

## **7. Sovrinni olish tartibi**

- 7.1. Tashkilotchi G'oliblar ro'yxati Telegram-kanal va Instagram-sahifada e'lon qilingan paytdan boshlab

5 ish kuni ichida G'olibning telefon raqamiga SMS, PUSH-xabar yuborish va/yoki qo'ng'iroq qilish orqali G'olib bilan bog'lanadi. G'olibga norasmiy telefon raqamlaridan kelgan qo'ng'iroqlar Tashkilotchidan rasmiy xabarnoma usuli hisoblanmaydi va sovrinni olish hamda/yoki ishtirokchining Aksiya G'olibi deb e'lon qilinganligini tasdiqlamaydi. Tashkilotchi telefon raqamiga qo'ng'iroqni amalga oshiradi.

#### **Qimmatbaho sovrinlarni topshirish**

- 7.2. Qimmatbaho sovrinlarni topshirish Bankning Bosh ofisida yoki Bank ofislarida, g'oliblarning shaxsan o'zi ishtirokida va shaxsini tasdiqlovchi hujjatning aslini taqdim etishi sharti bilan amalga oshiriladi.
- 7.3. Aksiya g'oliblariga sovrinlar har bir o'yin o'tkazilgandan so'ng topshiriladi. Tashkilotchi G'oliblar aniqlangandan so'ng qimmatbaho sovrinlarni topshirish muddatlarini mustaqil belgilash huquqiga ega. Sovrinlarning tarkibi va ko'rinishi ma'lumot maqsadida keltirilgan bo'lib, Tashkilotchining qaroriga ko'ra bir tomonlama tartibda o'zgartirilishi mumkin.
- 7.4. AQSh vizasiga hujjat topshirish Bosh sovrin G'olibi tomonidan mustaqil ravishda amalga oshiriladi.

#### **Bosh sovrinni topshirish**

- 7.5. Bosh sovrinni topshirish Toshkent shahrida, Bosh sovrinni rasmiylashtirish/olish jarayoni bilan bog'liq barcha hujjatlarni imzolash orqali amalga oshiriladi.
- 7.6. G'olib Bosh sovrinni olayotganda Tashkilotchiga quyidagi hujjatlarni taqdim etishi kerak:
  - Shaxsini tasdiqlovchi hujjatning asli;
  - Zarur bo'lganda, boshqa so'raladigan hujjatlar.
- 7.7. Hujjatlarni imzolash Tashkilotchi tomonidan SMS, PUSH-xabar yoki G'olibga qo'ng'iroq qilish orqali taqdim etilgan manzil va muddatlarda amalga oshiriladi. G'olibning kelmasligi yoki 60 daqiqadan ko'proq kechikishi Qoidalarning 7.9-bandiga muvofiq G'olibning Bosh sovrinni olishdan voz kechishi hisoblanadi.

#### **Sovrin olishning umumiy shartlari**

- 7.8. G'olib sovrinni olishdan voz kechishga haqli, bu haqda Tashkilotchiga va/yoki Tashkilotchi vakiliga xabar berishi kerak. Voz kechilgan taqdirda, G'olib sovrinni olish huquqini yo'qotadi va sovrinni qayta talab qilishga haqli emas. Sovrinni olishdan voz kechilganda pul kompensatsiyasi to'lanmaydi.
- 7.9. Tashkilotchining ixtiyoriga ko'ra, G'olib sovrinni olish uchun foto va videotasvirga olishga, shuningdek, foto va videotasvirlardan G'olib bilan birga (G'olibning bunday foydalanishga qo'shimcha roziligini olmasdan va G'olibga bunday foydalanish uchun hech qanday haq to'lamasdan), shu jumladan ommaviy axborot vositalarida (televideniye, Internet tarmog'i, bosma nashrlar va h.k.) reklama maqsadlarida foydalanishga, G'olib ishtirokidagi ushbu foto va videotasvirlardan foydalanish huquqini uchinchi shaxslarga berish huquqi bilan yozma rozilikni imzolashi zarur. G'olibning bunday rozilikni imzolashdan bosh tortishi Tashkilotchi uchun G'olibga sovrinni berishni rad etishga asos bo'ladi.
- 7.10. Sovrinlar pul ekvivalentida berilmaydi/almashtirilmaydi. G'olib sovrinni almashtirishni va/yoki sovrinning pul ko'rinishini talab qilishga haqli emas.
- 7.11. Tashkilotchi G'olibga topshirilgan sovrindan keyingi foydalanish bo'yicha, shuningdek, G'olibning har qanday sabablarga ko'ra sovrindan foydalana olmasligi uchun javobgar emas. Sovrin sifati uchun uning ishlab chiqaruvchisi javobgardir.
- 7.12. G'olib sovrinni olish vaqtida uning butunligi, butligi va ishlash qobiliyatini tekshirib ko'rishi shart. Sovrin Aksiya G'olibiga amalda topshirilgan paytdan boshlab, sovrinning tasodifiy nobud bo'lishi, yo'qolishi, shikastlanishi yoki sifati yomonlashishi xavfi, shuningdek, undan foydalanish, ekspluatatsiya qilish va saqlash uchun javobgarlik to'liq G'olibga o'tadi. Aksiya Tashkilotchisi

sovrinlar G'olibga topshirilgandan so'ng aniqlangan har qanday kamchiliklar uchun, shuningdek, sovrindan foydalanish oqibatlarini uchun javobgar emas.

- 7.13. Aksiyada ishtirok etish orqali G'olib quyidagilarga o'z roziligini tasdiqlaydi (va tegishli yozma rozilikni qo'shimcha ravishda taqdim etishga tayyor):
- Tashkilotchi tomonidan G'olibning manfaatlarini Aksiya doirasida amalga oshirish maqsadida G'olibning shaxsga doir ma'lumotlarini, shu jumladan familiyasi, ismi, mobil telefon raqami, shaxsini tasdiqlovchi hujjat ma'lumotlari, JSHSHIR qayta ishlashga;
  - Tashkilotchi va/yoki uning vakolatli shaxsi tomonidan G'olibni foto va videotasvirga olishga;
  - Yaratilgan foto va videotasvirlardan G'olib bilan birga (G'olibning bunday foydalanishga qo'shimcha roziligini olmasdan va G'olibga bunday foydalanish uchun hech qanday haq to'lamasdan), shu jumladan ommaviy axborot vositalarida (televideniye, Internet tarmog'i, bosma nashrlar va h.k.) reklama maqsadlarida foydalanishga, G'olib ishtirokidagi ushbu foto va videotasvirlardan foydalanish huquqini uchinchi shaxslarga berish huquqi bilan.
- 7.14. G'olib shaxsga doir ma'lumotlarini qayta ishlashdan va/yoki topshirish jarayonini foto/video suratga olishda qatnashishdan va foto/video materiallardan keyinchalik reklama maqsadlarida foydalanishdan bosh tortgan taqdirda, Tashkilotchi G'olibga sovrinni berishni rad etishga haqli.
- 7.15. G'olib barcha zarur hujjatlarni imzolashdan va/yoki boshqa yuridik ahamiyatga ega harakatlarni amalga oshirishdan, shu jumladan sovrinni olish maqsadida talab qilinadigan hujjatlarni taqdim etishdan bosh tortgan taqdirda, Tashkilotchi G'olibga sovrinni berishni rad etishga haqli.

## **8. Umumiy qoidalar**

- 8.1. Qoidalar shartnomaning barcha muhim shartlarini o'z ichiga oladi va O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367-moddasi va 369-moddasi 2-qismiga muvofiq ommaviy oferta hisoblanadi. Qoidalar ishtirok etish shartlarini, Ishtirokchilarni aniqlash tartibini, shuningdek, Aksiyani tashkil etish va o'tkazishning boshqa muhim shartlarini tavsiflaydi.
- 8.2. Tashkilotchi istalgan vaqtda bir tomonlama suddan tashqari tartibda Aloqa kanallari orqali tegishli ma'lumotni joylashtirib, Qoidalarni o'zgartirish va to'ldirishga haqli. Qoidalarga o'zgartirishlar Qoidalarga alohida o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish tarzida ham, Qoidalarni yangi tahrirda bayon etish tarzida ham rasmiylashtirilishi mumkin. Qoidalarga kiritilgan o'zgartirishlar, agar Qoidalarga o'zgartirish va qo'shimchalarda, Qoidalarning yangi tahririda yoki tegishli xabarnomada boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, tegishli xabarnoma Aloqa kanallari orqali e'lon qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi.
- 8.3. Aksiya Ishtirokchilari Qoidalarga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarni mustaqil ravishda kuzatib borishlari shart, buning uchun Aloqa kanallariga oqilona davriylikda tashrif buyurish majburiyatini oladilar.

## **9. Oferta aksepti**

- 9.1. Oferta aksepti Ishtirokchi tomonidan Aksiya davrida Tashkilotchining NBU Visa kartasidan foydalanishni amalga oshirish hisoblanadi.
- 9.2. Oferta aksepti Ishtirokchi tomonidan oferta barcha shartlarini hech qanday istisno va/yoki cheklolarsiz to'liq va so'zsiz qabul qilinishini anglatadi va yozma kelishuv tuzishga tenglashtiriladi.
- 9.3. Ofertani aksept qilish orqali Ishtirokchi oferta aksept qilingan paytda va Aksiya tugagunga qadar quyidagilarni tasdiqlaydi:
- oferta shartlari bilan to'liq va batamom tanishgan, rozi va ularga rioya qilish majburiyatini oladi;

- oferta akseptining mazmuni va ehtimoliy yuridik oqibatlarini tushunadi;
- huquq layoqatiga/muomala layoqatiga ega va Tashkilotchi bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishish uchun o'zining qonuniy huquqini tasdiqlaydi;
- Bosh sovrinni G'olibga topshirish mulk huquqini Tashkilotchidan G'olibga qayta rasmiylashtirish orqali amalga oshirilishini tasdiqlaydi va bunga rozi bo'ladi.

## **10. Shaxsga doir ma'lumotlar**

10.1. Aksiya Tashkilotchisi olingan ma'lumotlarni to'plash va keyinchalik foydalanish davomida O'zbekiston Respublikasining shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish va bank siri to'g'risidagi amaldagi qonunchiligining barcha qoidalariga rioya qilinishini kafolatlaydi. Ma'lumotlarni boshqa shaxslarga taqdim etish faqat O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan asoslarda va tartibda mumkin.

## **11. Javobgarlik**

11.1. Aksiya Tashkilotchisi quyidagilar uchun javobgar emas:

- Aksiya Ishtirokchilarining Tashkilotchi tomonidan joylashtirilgan Qoidalar shartlari bilan tanishishi imkoniyati yo'qligi;
- Aksiya Ishtirokchilari tomonidan Qoidalarda nazarda tutilgan majburiyatlarning o'z vaqtida bajarilmasligi/bajarilmasligi;
- G'olib va/yoki boshqa shaxslar tomonidan Bosh sovrinni rasmiylashtirish/olish uchun zarur bo'lgan barcha hujjatlarning o'z vaqtida imzolanmasligi;
- Bosh sovrinni rasmiylashtirish/topshirish jarayonida ishtirok etuvchi va/yoki ishtirok etishi mumkin bo'lgan uchinchi shaxslarning, shu jumladan, lekin cheklanmagan holda, vakolatli tashkilotlar, notariuslar, G'olib, hamkorlar, tashuvchilar, yetkazib berish xizmatlari, davlat organlari va boshqa subyektlarning harakatlari, harakatsizligi va/yoki kechikishlari;
- Bosh sovrinni rasmiylashtirish va/yoki olish jarayoniga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan, Tashkilotchining oqilona nazorati doirasidan tashqarida bo'lgan boshqa holatlar.

11.2. Tashkilotchi Aksiya Ishtirokchisi xatolarining har qanday oqibatlari, jumladan (boshqalar qatori) ko'rilgan zararlar uchun javobgar emas.

11.3. Tashkilotchi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan tartibda, tabiiy ofatlar, yong'in, suv toshqini, har qanday turdagi harbiy harakatlar, blokadalar, pandemiya bilan bog'liq karantin choralari, Aksiya o'tkaziladigan hududda amal qiladigan va (yoki) Tashkilotchi faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilikdagi jiddiy o'zgarishlar kabi fors-major holatlari, Tashkilotchi tomonidan nazorat qilinmaydigan boshqa holatlar yuzaga kelgan taqdirda javobgar bo'lmaydi.

## **12. Firibgarlikka qarshi kurashish**

12.1. Firibgarlik harakatlari, til birlashtirish, ma'lumotlarni soxtalashtirish, Tashkilotchi, uning vakillari va mukofot olishdan bevosita yoki bilvosita manfaatdor bo'lgan boshqa shaxslar bilan ham bevosita, ham bilvosita kelishuvlar mavjudligi, yakka Ishtirokchi bilan ham, Ishtirokchilar guruhi birgalikda ishtirok etishi aniqlangan boshqa har qanday harakatlar aniqlanganda, Tashkilotchi bir tomonlama tartibda ularning Aksiyadagi ishtirokini to'xtatib turish yoki bekor qilish huquqiga ega.

12.2. Tashkilotchi o'zining shaxsiy mulohazasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va Qoidalar qoidalarini hisobga olgan holda, Aksiyada ishtirok etish uchun hujjatlarni qalbakilashtirgan yoki qalbakilashtirishdan foyda ko'rgan yoxud Qoidalarni buzgan holda harakat qilib, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablarini buzish niyatida harakatlarni amalga oshirgan

har qanday Ishtirokchining Aksiyada keyingi ishtirokini taqiqlashi mumkin.

- 12.3. Tashkilotchi istalgan vaqtda Aksiyada firibgarlikka to'sqinlik qiluvchi qo'shimcha texnik cheklovlarni joriy etish huquqini o'zida saqlab qoladi. Har qanday Ishtirokchining har qanday insofsiz xatti-harakatga urinishi aniqlangan taqdirda, Ishtirokchi Aksiyada keyingi ishtirok etishdan chetlashtiriladi va avval taqdim etilgan rag'batlantirish choralari bekor qilinishi mumkin.
- 12.4. Tashkilotchi Aksiyada ishtirok etishning insofiligini baholashni Tashkilotchida mavjud bo'lgan texnik imkoniyatlar asosida hamda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va Oferta qoidalarini hisobga olgan holda mustaqil ravishda amalga oshiradi.

### **13. Yakuniy qoidalar**

- 13.1. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 387-moddasiga muvofiq, sovrinni yutib olgan Ishtirokchi nomidan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini to'lash majburiyatini Tashkilotchi soliq agenti sifatida o'z zimmasiga oladi, oltin quymasi ko'rinishidagi qimmatbaho sovrinlar bundan mustasno
- 13.2. Qoidalarda nazarda tutilmagan o'zaro munosabatlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq tartibga solinadi.
- 13.3. Aksiya o'tkazilishi bilan bog'liq barcha nizolar muzokaralar yo'li bilan hal qilinishi lozim. Tinch yo'l bilan kelishuvga erishish imkoni bo'lmagan taqdirda, nizo O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq O'zbekiston Respublikasining tegishli sudida ko'rib chiqilishi lozim.
- 13.4. Oferta Ishtirokchi tomonidan aksept amalga oshirilgandan so'ng kuchga kiradi va aksiya tugagunga qadar yoki Tashkilotchi tomonidan chaqirib olingunga qadar amal qiladi.
- 13.5. Jismoniy shaxs daromad solig'ini o'tkazish uchun hisob raqam: "O'zmilliybank" AJ, Bosh ofis, MFO 00450, STIR 200 836 354, H/r 22506 00090 00004 50079, to'lov maqsadida "Yutib olingan Sovrin JShDS summasi {G'olibning F.I.Sh.} JSHSHIR {raqam}" ko'rsatilsin.
- 13.6. O'tkazilayotgan Aksiya to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalanish imkoniyati Aksiya o'tkazilishi tugagandan so'ng 6 (olti) oy davomida saqlanadi.

### **14. Tashkilotchi to'g'risida ma'lumot**

«O'zmilliybank» AJ

Tashkilotchining aloqa ma'lumotlari:

100084, Toshkent sh., Amir Temur shoh ko'chasi, 101

+998 78 148-00-10/1344

Sayt: nbu.uz

### **RO‘YXAT**

Tovarlari/ishlari/xizmatlari to‘loviga quyidagi operatsiyalar kirmaydi: Visa bank kartasini to‘ldirish; bir bank kartasidan boshqasiga pul mablag‘larini o‘tkazish; bankomatlardan naqd pul mablag‘larini yechish va savdo xarakteriga ega bo‘lmagan boshqa operatsiyalar; shuningdek, quyidagi istisno qilinadigan operatsiyalar MCC kodlari bo‘yicha operatsiyalar (shu jumladan, lekin cheklanmagan holda):

- 4829 Pul o‘tkazmalari
- 6010 Moliyaviy muassasalar – naqd pulni qo‘lda yechish
- 6011 Moliyaviy muassasalar – naqd pulni avtomatik yechish
- 6012 Moliyaviy muassasalar – tovar cheklari
- 6050 Kvazi-kesh moliyaviy muassasalar
- 6051 Nomoliyaviy muassasalar – chet el valyutasi, pul o‘tkazmalari
- 6211 Qimmatli qog‘ozlar brokerlari/dilerlari
- 6529 Kreditorlar – ipoteka
- 6530 Kreditorlar – iste‘molchilar moliyasi
- 6531 Kreditorlar – ko‘chmas mulk garovi ostida ssudalar
- 6532 Kreditorlar – bo‘lib to‘lashga sotish
- 6533 Kreditorlar – moliyaviy xizmatlar
- 6534 Kreditorlar – ikkilamchi bozor
- 6536 Pul o‘tkazmalari, masalan Western Union
- 6537 Pul o‘tkazmalari, masalan American Express
- 6538 Pul o‘tkazmalari, masalan Thomas Cook
- 7995 Qimor o‘yinlari bo‘yicha tranzaksiyalar
- 4111 Shahar va shahar atrofi yo‘lovchi transporti, shu jumladan paromlar
- 4131 Shaharlararo avtobus tashuvlari